

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JURAYEV BOBOMUROD TOJIYEVICH

SOMONIYLAR DAVRIDA IJTIMOIIY-MADANIY HAYOT VA
PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Jurayev Bobomurod Tojiyevich

Somoniylar davrida ijtimoiy - madaniy hayot va pedagogik fikr taraqqiyoti 3

Жураев Бобомурод Тожиевич

Развитие общественно - культурной жизни и педагогической мысли в
саманидский период21

Juraev Bobomurod Tojievich

The development of social and cultural life and pedagogical thought in the
Samanid period 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....46

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JURAYEV BOBOMUROD TOJIYEVICH

SOMONIYLAR DAVRIDA IJTIMOIIY-MADANIY HAYOT VA
PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.Phd/Ped4332 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Olimov Shirinboy Sharofovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Vohidov Shodmon Huseynovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Phd.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil «12» aprel soat 13.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (622-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «26» mart kuni tarqatildi.
(2025 yil «26» mart dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi).



S.O. Qahhorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d., professor

U.H. Hayitov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.d. (PhD), dotsent

B.R. Adizov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda fan va texnika taraqqiy etayotgan davrda ulkan ilmiy-ma'naviy merosni o'rganish asosida ijtimoiy-kasbiy salohiyatni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti sharoitida o'zligini anglaydigan, vatanparvar va kasbiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan yoshlarni tarbiyalash yuksak ma'naviy qadriyatlar zamirida o'z yechimini topadi. Ta'limning zamonaviy muammolari va istiqbollarini tushunish uchun ta'lim va pedagogik fikr tarixiga murojaat qilish kerak. Tarixiy-pedagogik bilimlar bo'lajak o'qituvchilarga insoniyatning ta'lim va tarbiya sohasidagi haqiqiy tajribasini tushunishga yordam berishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda pedagogik ta'limotlarni tadqiq etish, ularning inson kamolotidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berish, talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishda pedagogik merosdan samarali foydalanishning ilmiy-metodologik jihatlarini o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, ularda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining pedagogik ta'limotlarini mazkur mintaqa ma'naviy merosining muhim qismi sifatida o'rganish doirasi kengaymoqda. YUNESKOning "Umumjahon madaniy merosi" dasturi, Buyuk Britaniyaning Kembrij universiteti (The University of Cambridge, UK) Markaziy va Ichki Osiyoni o'rganish qo'mitasi dasturi (The Committee for Central and Inner Asia, School of Oriental and African Studies), Angliyaning Oksford universiteti (University of Oxford, UK), Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Eronning Mirosi maktub tadqiqot instituti, Tehron universiteti, Tarbiyati Mudarris universiteti ilmiy dasturlari doirasida Somoniylar davri tarixi, madaniyati, bu davrda yaratilgan ma'naviy meros mazmunini o'rganish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, pedagogik ta'limotlar shaxsning ma'naviy kamolotida muhim o'rin egallashi, talabalarning kasbiy tafakkuri va ijodkorligi ko'lamining kengayishi bilan tavsiflangan. Tarixiy-pedagogik bilimlar kelajakni hisobga olgan holda zamonaviy sharoitda oqilona harakat qila oladigan kreativ pedagoglarni tayyorlaydi.

Mamlakatimizda ta'lim - tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andazalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirish uchun millatning ertangi istiqboli, milliy g'ururi, sha'ni va obro'si bo'lgan, yoshlarning yurt tarixini o'rganishi, undan tegishli xulosalar chiqarishi va keyingi hayot yo'lini o'sha boy tajriba bilan bog'lashi, Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim omili hisoblanadi. Zero Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir"¹. Somoniylar davrida pedagogik fikrlar

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda/ Sh.Mirziyoyev –Toshkent: O'qituvchi MCHJ, 2021, 31 bet.

taraqqiyotini o'rganish va tadqiq qilish dolzarb pedagogik ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida Somoniylar davrida yashab ijod qilgan Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Shakur Balxiy, Daqiqiy, Bal'amiy va boshqalarning pedagogik qarashlari nafaqat Sharq, balki G'arbdagi millionlab odamlarning diqqatini jalb qilgan. Shu bois, Somoniylar davridagi ta'lim-tarbiya tarixi, maktablari, urf-odatlar, an'analar va milliy qadriyatlarini o'rganish, ulardan hozirgi ma'naviy-ma'rifiy jarayonni yanada takomillashtirishda foydalanish zarur va dolzarb pedagogik masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1059-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat, demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning "Tarix-ur-rasul va-l-muluk" ("Payg'ambarlar va podshohlar tarixi"), Hamidulloh Qazvinining "Ta'rix guzida", Mirxondning "Ravzat-us-safo", Nizomulmulukning "Siyosatnoma", Avfiy Buxoriyning "Lubob ul-albob" va "Javome' ul-hikoyot", Zayniddin Mahmud Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'" asarlarida Somoniylar davri ijtimoiy-madaniy hayoti va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlar o'rin olgan.

V. V. Bartold, A. Yu. Yakubovskiy, Said Nafisiy, E. S. Bertels, B. G'afurov, N. Ne'matov, M. Nojiy, A. Muxtorovlar kabi olimlar tomonidan Somoniylar davlatining paydo bo'lishi, ijtimoiy-madaniy hayoti, qishloq xo'jaligi, hunarmandchiligi, ichki va tashqi savdo, soliq tizimi, moddiy madaniyati, me'morchiligi, ilm va fanning rivojlanishini tadqiq etilgan.

Respublikamiz olimlari Azamat Ziyo, Shamsiddin Kamoliddin, F.Sultonov, F.Bozorboyev Somoniylar sulolasining kelib chiqishi masalasini o'rgangan. K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov, S.Ochil, H.Homidiy, H.Aliqulov, F.A.Muxitdinova, F.B.Narzikulova, Sh.M.Amirsaidova, Z.B.Jalilov Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlar taraqqiyotiga doir ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida Somoniylar davri pedagogik qarashlarni o'rganish sohasidagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar M.A.Orifiyning qalamiga mansub bo'lib, muallif asosan, Rudakiy, Abu Ali ibn Sino va Firdavsiy g'oyalariga tayanib, ajdodlarimiz pedagogik ta'limotining asosini ochib bergan. M.Lutfulloyev, A.X.Xalimov, M.I.Giyosiyev, K.Xodjayev, M.S.Amindjanova va boshqalar tomonidan Somoniylar davri ijtimoiy-madaniy va pedagogik muhitining ayrim tomonlari tadqiq qilingan.

Tadqiqotlar tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda Somoniylar davrida shakllangan va taraqqiy topgan ta'lim va tarbiyaga doir g'oyalarni o'rganish, umumlashtirish, tartiblash hamda tizimli tahlil etish asoslarini takomillashtirish alohida ijtimoiy zaruriyat kasb etadi. Bu esa, Somoniylar davri ijtimoiy-madaniy hayotini, maktab va pedagogik merosini o'rganish va umumlashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini belgilab berdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Barkamol avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ajdodlar merosidan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Somoniylar davridagi ijtimoiy-madaniy hayot va pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish va ulardan hozirgi zamon ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish tizimini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Somoniylar davrida ijtimoiy-madaniy hayot va pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish zaruratini ilmiy-pedagogik jihatdan aniqlashtirish;

Somoniylar davrida faoliyat ko'rsatgan ta'lim muassasalaridagi ta'lim tizimi, shakllari, bosqichlari, o'qitishning metod va vositalarini aniqlash hamda ularni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish;

yosh avlodni barkamol inson, yuksak axloq sohibi etib tarbiyalashga doir Somoniylar davri mutafakkirlarining ilg'or fikr va qarashlarining bugungi davr uchun ahamiyatli ekanligini asoslash;

Somoniylar davri ta'lim tizimidagi ilg'or fikr va qarashlardan foydalanishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyekti: Somoniylar davridagi ijtimoiy-madaniy hayot va uning pedagogik fikrlar taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish hamda mazkur g'oyalardan oliy ta'limning o'quv-tarbiya va auditoriyadan tashqari faoliyatda foydalanish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: Somoniylar davrida ta'lim tizimidagi ilg'or g'oya va fikrlarning mazmun-mohiyati va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari: tadqiqot ishida tarixiy xronologik va analitik tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba-sinov ishlari (eksperiment, test, anketa so'rovnoma, suhbat), matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Somoniylar davrida ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiya jarayonlari ushbu davr ma'rifatparvarlari tomonidan yaratilgan madaniy-ma'rifiy hayotda qo'llanilgan

tarixiy, falsafiy, badiiy-estetik, ilmiy-pedagogik asarlar davriy-xronologik, konstruktiv-tuzilmaviy jihatdan pedagogik tamoyillarga ustuvorlik berish asosida tahlil qilinib, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning dolzarbligi aniqlashtirilgan;

Somoniylar davrida faoliyat ko'rsatgan ta'lim muassasalaridagi o'qitish tizimi yakka tartibda, guruhda, jamoada ta'lim olish jarayonidagi (xotirada saqlash, yozishga o'rgatish, hikoya, lug'at, yodlash, savol-javob, bahs-munozara, ma'ruza, o'rganilganlarni qiroat qilish, tafsir, sura va oyatlarni xotirada saqlash) ta'lim metodlarini tanlash mezonlari tashkiliy-metodik, integrativ-muqobillik vositasida aniqlanib, ulardan oliy ta'limda samarali foydalanishning muammoli, modulli, hamkorlikda o'qitish kabi zamonaviy yondashuvlari takomillashtirilgan;

Somoniylar davri mutafakkirlarining yosh avlodni barkamol inson, yuksak axloq sohibi etib tarbiyalashga doir ilg'or fikr va qarashlari motivatsion, faoliyatli, kognitiv, qadriyatli-mezonli, tashxisli-baholovchi yondashuvlar vositasidagi zamonaviy ta'lim paradigmalari bilan integratsiyalashning ahamiyati ilmiy asoslangan;

Somoniylar davri ta'lim tizimidagi ilg'or fikr va qarashlardan foydalanishga oid ilmiy-metodik ko'rsatmalar, taklif va tavsiyalar intellektual va yuqori kasbiy sifatlar hamda shaxsiy pozitsiyaga ega yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalashga yo'naltirilgan talabalarning kognitiv bilimlarga egalik, o'z-o'zini uzluksiz rivojlantirish kabi ta'lim jarayonining zamonaviy talablariga muvofiq bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Somoniylar davridagi ta'lim-tarbiya va pedagogik qarashlarga oid mutafakkirlarning ijod namunalaridan pedagogik turkum fanlarini o'qitish jarayonida talabalarga taqdim etilgan didaktik material, ishlanma, hikoya, hikmatlar tartibga solinib amaliyotga joriy etilgan;

“Yosh muallim” to'garagi tashkil etilib, uning metodik ta'minoti ishlab chiqilgan;

Somoniylar davri mutafakkirlarining pedagogik g'oyalaridan ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga falsafiy-tarixiy hamda ilmiy-pedagogik yondashuv tadqiqot mazmuniga muvofiq keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan oliy ta'lim muassasalari va talabalar soni talab darajasida bo'lganligi va natijalar statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuni bilan asoslangan.

Tadqiqotimiz natijasida hozirgacha mavjud bo'lgan turlicha qarash va fikrlarni taqqoslash asosida xulosalar chiqarish, tadqiqotning maqsad va vazifalarini ifoda etishga qaratilgan bir qator metodlarni qo'llash, IX – X asrlarda yashab ijod etgan mutafakkirlar asarlarining turli tildagi matnlari, sharh va boshqa qo'shimcha manbalarga ijodiy yondashish asosida ta'lim-tarbiya tarixiga doir yangi, ilg'or nazariy pedagogik qarashlarga tayanilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jarayonida olingan natijalardan oliy o'quv yurtlari, professional ta'lim muassasalaridagi "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Oila pedagogikasi", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Xalq pedagogikasi", "Pedagogik aksiologiya", "Pedagogik fikrlar taraqqiyoti", "Ijtimoiy pedagogika", shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi "Tarbiya" kabi fanlarni o'qitish, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida, tadbirlarda Somoniylar davrida ta'lim va tarbiya tizimida qo'llanilgan ilg'or fikr va qarashlardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi umumlashma va tahlillardan pedagogik fanlardan darslik, o'quv qo'llanma, antologiya, ma'ruza matnlari va pedagogik lug'atlarni yaratish, uzluksiz ta'limda tarbiyaviy ishlar mazmunini takomillashtirishda foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Somoniylar davrida ijtimoiy-madaniy hayot va pedagogik fikr taraqqiyotiga doir olingan ilmiy natijalar asosida:

Somoniylar davrida ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiya jarayonlari hamda ushbu davr ma'rifatparvarlari tomonidan yaratilgan madaniy-ma'rifiy hayotda qo'llanilgan tarixiy, falsafiy, badiiy-estetik, ilmiy-pedagogik asarlar davriy-xronologik, konstruktiv-tuzilmaviy jihatdan pedagogik tamoyillarga ustuvorlik berish asosida tahlil qilinib, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning dolzarbligini aniqlashtirishga oid ilmiy xulosalar "Pedagogika nazariyasi va tarixi" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 6-fevraldagi 02-07-331/04-sonli dalolatnoma). Natijada Somoniylar davrida yaratilgan ma'naviy-ma'rifiy manbalar, mutafakkirlar yaratgan asarlar mazmunidagi pedagogik qarashlarni o'rganish dolzarb muammo ekanligini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

Somoniylar davrida faoliyat ko'rsatgan ta'lim muassasalaridagi o'qitish tizimi (maktablar, jamoa masjidleri, madrasa, kutubxona, do'kon, xonaqoh, sufa, karvonsaroy, olimlarning uyi), yakka tartibda, xutbalar, ko'rsatmalar, jamoa bo'lib o'qish, ilmiy-adabiy to'garak, amaliy mashg'ulot, guruhli o'qitish shakllari, xotirada saqlash, yozishga o'rgatish, hikoya, lug'at, yodlash, savol-javob, bahs-munozara, ma'ruza, o'rganilganlarni qiroat qilish, tafsir, sura va oyatlarni xotirada saqlash kabi ta'lim metodlari tashkiliy-metodik, integrativ-muqobillik vositasida aniqlanib, ulardan oliy ta'lim jarayonida samarali foydalanishning muammoli, modulli, hamkorlikda o'qitish kabi zamonaviy yondashuvlariga oid umumlashma va tavsiyalar "Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4-oktyabrdagi 892-son buyrug'i, 892-052-raqamli guvohnoma). Natijada Somoniylar davrida faoliyat ko'rsatgan ta'lim muassasalaridagi ta'lim shakllari, bosqichlari, ta'lim metod va vositalarini aniqlash imkoni kengaytirilib, pedagogik fanlarni zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish takomillashtirilgan;

Somoniylar davri mutafakkirlarining yosh avlodni barkamol inson, yuksak axloq sohibi etib tarbiyalashga doir ilg'or fikr va qarashlari motivatsion, faoliyatli,

kognitiv, qadriyatli-mezonli, tashxisli-baholovchi yondashuvlar vositasida zamonaviy ta'lim paradigmalari bilan integratsiyalashning ahamiyatiga oid ilmiy asoslangan ma'lumotlardan YoA-1-9-“OT-F1-002-Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari” (2017–2020-yillar) mavzusidagi fundamental loyihani “Oliy ta'lim muassasalari talabalarida psixologik muhofazasini shakllantirish va ularni kasbiy tafakkurini rivojlantirish” qismini bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2022 yil 24-martdagi 01-04/01-0635-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik-psixologik muhofazasini shakllantirishga, ularni ma'naviy-ma'rifiy va kasbiy tafakkurini rivojlantirishga, yosh xususiyatlarni inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Somoniylar davri ta'lim tizimidagi ilg'or fikr va qarashlardan foydalanishga oid ilmiy-metodik ko'rsatmalar, taklif va tavsiyalar intellektual va yuqori kasbiy sifatlar hamda shaxsiy pozitsiyaga ega yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalashga yo'naltirilgan talabalarning kognitiv bilimlarga egalik, o'z-o'zini uzluksiz rivojlantirish kabi ta'lim jarayonining zamonaviy talablariga muvofiq bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilgan xulosalar “Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi” nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302- son buyrug'iga asosan berilgan 302-1163 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada Somoniylar davri ta'lim tizimidagi ilg'or fikr va qarashlardan foydalanishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ushbu ilg'or g'oyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash samaradorligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 43 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta darslik, 3 ta o'quv qo'llanma, dasturiy mahsulotlar uchun Intellektual mulk agentligidan olingan 3 ta mualliflik guvohnomasi, 3 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, jumladan, 12 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, 7 paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asosanib, tadqiqotning fan va texnikalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalarining ishonchligi asoslangan hamda nazariy-amaliy ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning aprobatyasi, ilmiy-amaliy

natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Somoniyilar davrida ijtimoiy-madaniy hayot va pedagogik fikrlar taraqqiyotining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda Somoniyilar davrida ijtimoiy-madaniy hayot va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarni o'rganish dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslanib, Somoniyilar davrida ijtimoiy-madaniy hayotning ta'lim-tarbiya jarayoni va pedagogik fikrlar taraqqiyotiga ta'siri, mazkur davrda ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Somoniyilar davlatida devonlar asosida boshqaruv yo'lga qo'yilganligi, mazkur devonlarda faoliyat ko'rsatadigan kishilar diniy va dunyoviy ilmlardan, o'qish va yozishdan xabardor bo'lishlari kerakligi, Buxoroni “Qubbatul Islom”ga aylanganligi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi, kutubxona va madrasalarning barpo etilishi pedagogik fikr shakllanishi va taraqqiyotiga ta'sir o'tkazganligi, ta'lim maskanlari (ta'lim turlari) boshlang'ich maktablar, jamoa masjidleri, madrasa, kutubxona, do'kon, xonaqoh, sufa, karvonsaroy va rabotlar, olimlarning uyi ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshirishganligi va mazkur ta'lim dargohlarida ta'limning turli metodlaridan foydalanganligi keltirilgan.

IX–X asrlarda Somoniyilar davlatida ijtimoiy-madaniy hayot ijobiy tomonga yuksalib, turmush tarzi yaxshilanish tomonga yuz tutgan. Ayniqsa, sulolaga aqlli, tadbirkor, xalq manfaatini ko'zlab ish yurituvchi Ismoil Somoniy hukmronlik qilgan davrlarida (874-907 y.) ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayot muayyan darajada yaxshilanib borgan. Ismoil Somoniy o'sha davr uchun ilg'or hisoblangan markazlashgan davlat tizimini joriy etishga e'tibor qaratgan. Bu tizim ijtimoiy-madaniy xususiyat kasb etib, uning asosini oliy hukmdor qarorgohi (saroyi) va devonlar (vazirliklar) tashkil etgan. Bu devonlar 10 (o'n)ta yo'nalishdan iborat bo'lgan. Bular: Bosh vazir devoni, moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni, davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish devoni, soqchilar boshlig'i devoni, xat-xabar mutasaddisi devoni, saroy ish boshqaruchisi devoni, muhtasib devoni (uning xizmatchilari zimmasiga shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda ijtimoiy tartibni himoya qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslik kabi ishlar yuklangan), vaqflar devoni, qozilik ishlari devoni ana shular jumlasidan.

Devonlarda ishlovchilar davlat tilini mukammal bilishi, huquq ilmidan xabardor bo'lishi, hisob-kitob ishlari bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lish, tarix, adabiyot, shariat qonun-qoidalarining bilimdoni bo'lishi talab etilgan. Bu hol hamda amirlikda ijtimoiy-madaniy hayotning yaxshilanish, mamlakatda savdo-sodiq, hunarmandchilikni rivojlanishi, qishloq xo'jaligida bog'dorchilik, polizchilikning yuksalishi bu soha ishtirokchilarining savodli, ma'lumotli bo'lishi lozimligini taqozo etgan. Shu tariqa mavjud bo'lgan maktab, madrasalarda o'qish, o'qitish ishlari yaxshilanishiga imkon yaratilgan. Mamlakat ta'lim tizimini yangilash, ilm-fan, hunarmandchilik, bog'dorchilikni rivojlantirish uchun tabiiy-biologik fanlar o'qitilishini yaxshilashga e'tibor kuchaytirilgan.

Samarqand va Buxoro Somoniylarning markaziy shaharlarga aylangach, bu hududlarda yetuk mutaxassis va o'qituvchi-murabbiylarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Arab tili va adabiyotidan dars beradiganlar Bag'dodda yoki Xalifalik tasarrufidagi shaharlarda ta'lim olganlar. Buxoro, Samarqand, Marv va Xorazm shaharlarida aniq va tabiiy fanlar bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash amalga oshirilgan. Islom mafkurasi ta'lim va tarbiya tizimiga kirib, ta'lim mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatgan, zardushtiylik va buddaviylik dinlari o'rniga Islom qoidalari va qonunlari o'rgatila boshlangan. So'g'd alifbosi o'rniga bosqichma-bosqich arab alifbosi joriy etilgan. Maktablarning aksariyati masjidlarda, yakka tartibda faoliyat ko'rsatgan. Muvaffaqiyatli, o'qish-o'rganishda namunali bo'lgan talaba boshqalarga dars berishi mumkin bo'lgan.


Somoniylar davrida milliy maktablar shakllanganligi sababli, shaharlarda madrasalarning ochilishiga imkon yaratgan. Arab xalifasi istilosidan so'ng Xuroson va Movarounnahr shaharlarida boshlang'ich maktab va madrasalarni tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratishgan. Shu bois bu davrda maktablar uchun qobiliyatli o'qituvchilarni tayyorlash zaruriyati vujudga kelgan. Eng avvalo, o'tmish maktablari tajribasidan foydalanilib, o'qitishga tajribali mudarrislar jalb etilgan. Savodli va bilimli kishilar o'qituvchi sifatida qabul qilingan.

Somoniylar davrida Buxorodagi Jo'yi Mo'liyon mahallasi ta'lim-tarbiyaning asosiy markazlaridan biri hisoblanib, ilm-fan, pedagogik fikr va ma'rifat rivojlangan mahallalardan biri bo'lgan va mazkur mahalla ilm-fanning gullab-yashnashiga katta hissa qo'shgan. Somoniy amirlari Ismoilidan boshlab to Nuhgacha ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor berib, o'z avlodini ma'rifatli qilish uchun katta sa'y-harakatlar qilgan. Bu davrda mintqa maktablari bevosita davlat nazoratida bo'lib, amirlar ta'lim darajasini yanada yuksaltirishga harakat qilganlar. Movarounnahrda xususiy madrasalar ham faoliyat ko'rsatgan. Bu madrasalarga, avvalo, yuqori martabali din arboblari asos solgan. Masalan, Somoniylar davrida Abul Mansur Moturidiy va Abulqosim Samarqandiy ana shunday madrasalarning rahbarlari bo'lgan.

IX–X asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot ma'rifiy taraqqiyotga katta ta'sir ko'rsatib, Somoniylar davlatiga kiruvchi 35 ta katta va kichik shaharda maktab, masjid, madrasa, kutubxona, xonaqoh, rabot va karvonsaroylarni o'z tarkibiga olgan ta'lim tizimining tarkib topishiga sabab bo'lgan. Bu jarayon Amudaryoning ikki qirg'og'ida joylashgan Buxoro, Poykand, Romitan, Nasaf, Zandani kabi shaharlarda, Karmana hududigacha bo'lgan yerlarda kuzatilgan.

Natijada Somoniylar davlatida mustahkam ta'lim tizimi shakllangan. Ma'lumki, tizim uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar birligini, yaxlitligini, ichki bog'liqlik hamda barqarorligini ta'minlovchi munosabatlar hamjihatligini anglatuvchi tushuncha.

Yuqoridagi fikrlar hamda manbalardan kelib chiqib aytish mumkinki Somoniylar davlatining ta'lim tizimi va ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yuvchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi devonlarni, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojini qondiruvchi, talablarini amalga oshiruvchi ta'lim turlarini, ta'lim muassasalarida o'qish, o'qitishning shakllari va usullarini qamrab olgan edi. Buni umumiy tarzda quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. Somoniylar davrida ta'limni tashkil etish va boshqarish tizimi

Ta'lim maskanlari (ta'lim turlari) boshlang'ich maktablar, jamoa masjidlari, madrasa, kutubxona, do'kon, xonaqoh, sufa, karvonsaroy va rabotlar, olimlarning uyi ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshirishning asosiy maskanlari sanalgan va bu maskanlarda o'qish yakka tartibda (individual), xutbalar, ko'rsatmalar, jamoa bo'lib o'qish (ma'ruza mudarris tomonidan), ilmiy-adabiy to'garak, amaliy mashg'ulot, guruhiy tartibda amalga oshirilib, xotirada saqlash, yozishga o'rgatish, hikoya, lug'at, yodlash, savol-javob, bahs-munozara, ma'ruza, o'rganilganlarni qiroat qilish, tafsir, sura va oyatlarni xotirada saqlash, aytish kabi ta'lim metodlaridan foydalangan.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Somoniylar davri mutafakkirlarining ma'rifiy-axloqiy qarashlari va ularning hozirgi kundagi amaliy ahamiyati”** deb nomlangan va bu bobda Somoniylar davri mutafakkirlari Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Shakur Balxiy, Abu Ali ibn Sinoning ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari mazmuni tadqiq etilgan. Shuningdek, Somoniylar davri mutafakkirlarining

pedagogik g'oyalari tasniflangan va mazkur ta'limotlarning hozirgi davr uchun ahamiyati, Somoniylar davri mutafakkirlarining pedagogik qarashlaridan zamonaviy ta'lim sharoitida foydalanishning shakl, usul va vositalari ko'rsatilgan.

Arablar Movarounnahr istilosidan so'ng qariyb ikki asr davomida mamlakatda hukmronlik qilib, mahalliy xalq ustidan o'z boshqaruvchiliklarini mustahkamlab, bosib olingan hududlarning boyliklarini o'z xazinalariga to'plashga harakat qildilar. Bu albatta, o'sha davrning ta'lim-tarbiya tizimi, xalq madaniyati, ma'rifati va pedagogik fikrlar taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Somoniylar davrida shaxsning insonparvar, barkamol inson qilib voyaga yetkazishga doir qarashlar muhim bo'lgan. Sharq mutafakkirlari inson tabiatining mohiyatiga kirib borishga, tarbiyaning ijtimoiy va biologik determinantlarini hisobga olishga harakat qilganlar. Insonning ijtimoiy mohiyatiga alohida ahamiyat berilgan. Ta'limning asosiy maqsadi, eng avvalo, insonning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni egallashga intilishida ko'rindi.

Somoniylar davrida yashab ijod etgan mutafakkirlar o'z asarlarini shaxsni barkamol rivojlantirish dasturini ishlab chiqishga bag'ishlagan. Ta'lim har bir davlatning milliy o'zini anglash jarayoni va yangi milliy-davlat tuzilmasini shakllantirishda muhim omil sanaladi. Xalqning madaniy va etnik o'zligini anglash jarayoni etnogenez bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonda shaxs o'z xalqining etnik tarixi bilan tanishadi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Somoniylar davri mutafakkirlarining ma'naviy barkamollik ta'limotlari

Ma'naviy va moddiy qadriyatlar, ilg'or nazariyalar va xalq ijodiy tafakkurining o'ziga xos shakllari insonni takomillashtirish yo'lida yangi sharoitlarda chinakam ijtimoiy taraqqiyot manbai bo'lib xizmat qilishi kerak. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida somoniylar davrida yashab ijod etgan mutafakkirlarning pedagogik qarashlaridan samarali foydalanish, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik merosni tahlil va talqin qilish, uning shaxs kamolotini ta'minlashdagi

imkoniyatlarini ochishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni tizimli tarzda amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish vazifasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.


Somoniylar davrida yashab ijod etgan mutafakkirlarning ma‘naviy merosini tahlil etish ularning pedagogik qarashlarini tasniflash imkonini berdi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Somoniylar davri mutafakkirlarining pedagogik ta‘limoti tasnifi

Ta‘limotlar	Abu Abdulloh Rudakiy	Abu Shakur Balxiy	Abu Ali ibn Sino
Ta‘lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari	1. Ta‘lim hayotiy va aniq misollar asosida quriladi 2. Bilim olish qiziqarli va oson bo‘lishi kerak 3. Bolalarga yoshlikdan ta‘lim berish va tarbiyalash 4. Tarbiyada jazolash	1. Hayotiy tajriba, inson faoliyati va munosib xulq-atvor hayotdagi eng asosiy ustozdir 2. Yaxshi nom qozonishga intilish 3. Nutq madaniyatini rivojlantirish	1. Muammolarni qo‘yish va ularni hal qilish 2. O‘quvchilarning qiziqishlari, imkoniyatlari, bilish darajasini inobatga olgan holda o‘qitish orqali tarbiyalash 3. Kasb va mehnatga yo‘naltirish asosida o‘qitishni amalga oshirish
Ta‘limning tashkiliy shakllari	1. Yakkama-yakka (individual), oila va madrasada. 2. Individual topshiriqlar darsi 3. Muayyan topshiriqni bajarish va fanni o‘zlashtirishdan keyingi takror darsi. 4. O‘z ehtiyoji va qiziqishiga ko‘ra mustaqil ta‘lim olish	1. Individual va guruh 2. Ustoz rahbarligida mustaqil ta‘lim olish. 3. Hayot davomida ta‘lim olish.	1. Individual, individual-guruh. 2. Mustaqil ta‘lim olish, ammo bu ustoz rahbarligida amalga oshirilishi zarur
Ta‘lim va tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari	1. Ta‘lim va tarbiyaning insonparvarligi 2. Ta‘lim va tarbiyaning axloqqa yo‘naltirilganligi 3. Inson va tabiat go‘zalligini his etishga qaratilgan tarbiyaning estetik asoslari 4. Mehnat vositasida tarbiyalash	1. Halollik, hayo, vafo, mehribonlik, xushmuomalalik, to‘g‘riso‘zlik. 2. Adolat, tenglik va haqiqatparastlik. 3. Do‘stlik va birodarlik.	Mehribonlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, insonparvarlik, halollik, do‘st tanlashda ehtiyotkorlik, sabrlilik, bag‘rikenglik, osoyishtalik, maqsadlilik
Tarbiyada oilaning o‘rni	1. Bola tarbiyasida oilaning ustunligi 2. Talabchan oila – kelajak garovi	Boshlang‘ich tarbiyani beradi va ta‘lim olishga tayyorlaydi	1. Tarbiyada alohida mavqega ega. 2. Bolani kelajagini yaratishga mas‘uliyatli yondashish 3. Ta‘lim va tarbiya berish 4. Kasb va hunarga o‘rgatish
Bolaning tabiati va uning rivojlanishi	1. Bola qiziqishlarini inobatga olish. 2. Xudo bolaga iqtidor va qobiliyat beradi. 3. Mehnat va mehnatsevarlik bola imkoniyatlarini rivojlantiradi, bu intilishni uni qalbiga xudo joylashtiradi	1. Ustozga mo‘htojlik 2. Hayot maqsadini bilish yo‘llarini izlaydi.	1. Doimiy rivojlanadi va o‘zgarib turadi 2. Olti yoshda u jismoniy va aqliy ishlash uchun barcha potensial imkoniyatlarga ega.

Yuqoridagi tahlillar asosida Somoniylar davri ijtimoiy-madaniy hayot va pedagogik fikr taraqqiyotini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish modeli ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Somoniylar davri ijtimoiy-madaniy hayot va pedagogik fikr taraqqiyotini o'rganish va amaliyotga tatbiq etishning takomillashtirilgan modeli

Tavsiya etilgan model uch qismdan iborat bo'lib, har bir qismda talabalar bilish faoliyatini rivojlantirishga doir ilmiy-nazariy bilimlar bilan qurollantiriladi, ta'lim jarayonida mutafakkirlarimiz merosidan foydalanish ko'nikmalarini tarkib toptirish hamda yuksak axloqiy fazilatlarga ega, har tomonlama barkamol shaxs, bo'lajak mutaxassis-pedagoglarni tayyorlash ko'zda tutiladi. Modelning birinchi maqsadli komponentda Somoniylar davrida ijtimoiy-madaniy hayot va pedagogik fikr taraqqiyotini o'rganishning maqsad va vazifalari, mutafakkirlarimiz merosidagi ta'lim va tarbiyaga doir ta'limotlar qamrab olingan.

Ikkinchi tashkiliy-texnologik komponentda oliy ta'lim muassasalarida talabalarga Somoniylar davrida ijtimoiy-madaniy hayot va pedagogik fikr taraqqiyotini o'rgatishda pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari, metodlari va vositalari yoritishga bag'ishlangan.

Somoniylar davrida ijtimoiy-madaniy hayot va pedagogik fikrlar taraqqiyotiga tegishli mavzular va rejalarni fan dasturlari mazmuniga kiritish, muammoli va binar ma'ruzalar, reproduktiv va produktiv seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish muammoni chuqur o'rganish va tahlil etishga olib keladi. Somoniylar davridagi ijtimoiy-madaniy hayot va mazkur davrdagi ta'lim-tarbiya tizimi hamda mutafakkirlarning pedagogik ta'limotlariga doir auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim, ekskursiya, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek pedagogika turkum fanlarni o'qitishda tushuntirish, hikoya, suhbat, "Venn diagrammasi", "Klaster", "Aqliy hujum", "Keys stadi" kabi interaktiv usullar tavsiya etildi.

